



I
2025

ELECTRONIC EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Laqayev Saidaxmad Norjigitovich
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o'rinnbosari

Ro'ziyev Rauf Axmadovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Mas'ul muharrir

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich
pedagogika fanlari doktori DSc, professor

Editor-in-Chief

Saidakhmad Norjigitovich Lakayev,
doctor of physical and mathematical sciences,
academician

Deputy Editor-in-Chief

Ruziyev Raup Akhmadovich,
Candidate of Physical and Mathematical Sciences,
Associate Professor

Responsible editor

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich,
doctor of Pedagogical Sciences DSc, Professor

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Kalonov Muxiddin Baxriddinovich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)
Xujjiyev Sodiq Oltiyevich - biologiya fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)
Ibragimov Alimjon Artikbayevich - fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)
Suvonov Olim Omonovich - texnika fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)
Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich - fizika- matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)
Nasirova Shaira Narmuradovna - texnika fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)
O'tapov Toyir Usmonovich - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)
Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich - fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)
Djurayev Risbay Xaydarovich - akademik (O'zbekiston)
Shokin Yuriy Ivanovich - akademik (Rossiya)
Negmatov Sayibjon Sodiqovich - akademik (O'zbekiston)
Aripov Mersaid Mirsiddikovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)
Turabdjyanov Sadritdin Maxamatdinovich - texnika fanlari doktori, akademik. (O'zbekiston)
Raximov Isomiddin Sattarovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor. (Malayziya)
Shariy Sergey Petrovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
Ajimuxammedov Iskandar Maratovich - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
Ibraimov Xolboy - pedagogika fanlari doktori, akademik. (O'zbekiston)
Yunusova Dilfuza Isroilovna - pedagogika fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)
Aloyev Raxmatillo Djurayevich - fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)
Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna - pedagogika fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)

Mo'minov Bahodir Boltayevich - texnika fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)
Rosmayati Mohemad - professor. (Malayziya)
Zainidin K. Eshkuvatov - fizika-matematika fanlari doktori (DSc). (Malayziya)
Muhammad Suzuri bin Hitam - professor. Malayziya
Amiza binti Mat Amin - professor. (Malayziya)
Korshunov Igor Lvovich - texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Rossiya)
Kolbanyov Mixail Olegovich - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
Verzun Natalya Arkadyevna - texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Rossiya)
Stel'mashonok Yelena Viktorovna - iqtisod fanlari doktori, professor. (Rossiya)
Tatarnikova Tatyana Mixaylovna - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
Alekseyev Vladimir Vasilyevich - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)
Satikov Igor Abuzarovich - fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
Boyarsheva Oksana Aleksandrovna - fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
Makarenko Sergey Nikolayevich - texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
Sednina Marina Aleksandrovna - texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)
Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O'zbekiston)
Lutfillayev Maxim Xasanovich - pedagogika fanlari doktori, dotsent(O'zbekiston)
Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. (O'zbekiston)
Maxmudova Dilfuza Mileyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Xudjayev Muxiddin Kushshayevich - texnika fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston).
Ibragimov Abdusattar Turgunovich - texnika fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston).

Norov Abdusaid Murodovich – texnika fanlari
bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent (O’zbekiston).

Yuldashev Ismoil Abriyevich – pedagogika fanlari
bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent (O’zbekiston)

Karaxonova Oysara Yuldashevna – pedagogika fanlari
bo ‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston).

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna- pedagogika fanlari
doktori, dotsent. (O’zbekiston)

Jabbarov Oybek Rakhmanovich- texnika fanlari
bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent (O’zbekiston).

Kabiljanova Firuza Azimovna-fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent. (O’zbekiston)

Baxodirova Umida Baxodirovna-pedagogika fanlari
bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent. (O’zbekiston)

Sharipov Ergash Oripovich-pedagogika fanlari
bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent. (O’zbekiston)

Xamroyeva Dilafro’z Namozovna – fizika-matematika
fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston).

Toxirov Ferux Jamoliddinovich – pedagogika fanlari
bo ‘yicha falsafa doktori (O’zbekiston).

Jo’rakulov Tolib Toxirovich- texnik muharrir

© Mazkur jurnal O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagи 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro ‘yxatiga kiritilgan

Address: Navoiy sh., Janubiy ko‘chasi, 1-A uy. (1-A, South Street, Navoi city) URL:
<http://www.el-nspi.uz>

MUNDARIJA***Aniq fanlarda axborot texnologiyalari***

<i>Yakubov M. S., Bekmuxammedov B. N.</i>	
<i>ADAPTIV TA'LIMNING INSTRUMENTAL VOSITALARI VA ALGORITMLARI</i>	10
<i>Ruziyev R. A.</i>	
<i>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA MASHG'ULOTLARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULI</i>	31
<i>Yuldashev I. A.</i>	
<i>TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDA AXBOROT ALMASHINUV JARAYONINI 3D MODELINI YARATISH VA FOYDALANISH</i>	39
<i>Xolbekov Sh. O., Ochilov Sh. Sh.</i>	
<i>YAQINLASHUVCHI MONOTON KETMA- KETLIK LARNING ARIFMETIK AMALLARNING BAJARILISHIDAGI TADBIQLARI</i>	49
<i>Absobirov S. Q.</i>	
<i>TALABALARGA ARDUINO MUHITIDA DASTULASHNI O'RGATISH USULI</i>	59
<i>Husanova S. H.</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIGA HISOBKURINI O'RGATISHDA MANTIQIY VA ALGORITMIK FIKRLASHNING O'RNI</i>	68
<i>Begjanova Z. T.</i>	
<i>SUN'YIY INTELLEKT TIZIMLI PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNI YARATISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA VOSITALAR</i>	77
<i>Ashurova G. Sh.</i>	
<i>TALABALARING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI</i>	84
<i>Xalikov A. T.</i>	
<i>O'QUVCHILARNING FRILANSERLIKKA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA DARSDAN TASHQARI FAOLIYATDAN FOYDALANISH USULI</i>	97
<i>Xamroyeva D. N., Baxtiyorova N. I.</i>	
<i>TALABALARING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI MOBIL ILOVA YARATISH VA FOYDALANISH USULI</i>	108
<i>Saidova D. E.</i>	
<i>OBYEKTGA YO'NALTIRILGAN MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLAR</i>	119
<i>Ismailov J. A.</i>	
<i>BULUTLI XIZMATLARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING AMALIY XUSUSIYATLARI</i>	131
<i>Bozorov A. A.</i>	
<i>UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING VIZUAL DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MODELI</i>	141
<i>Donayev N. Y.</i>	
<i>BO'LAJAK MATEMATIKA VA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AXBOROT-TA'LIM MUHITLARIDAN FOYDALANISH</i>	158
<i>Bobonorova Y. A.</i>	
<i>TALABALARING MASHG'ULOTLARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA WEB-PLATFORMALARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI</i>	169

Hoshimov O. P. TALABALARING OBYEKTGА YO'NALTIRILGAN DASTURLASH MUHITIDA ILOVALARNI ISHLAB CHIQISHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI	176
Mirzayev I. M. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING VEB DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLANTIRISH MUAMMOLARI	185
Himmatov Sh. O. TALABALARING FRILANSERLIKKA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTRISH MUAMMOLARI	195
Maxsetova M. M. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KOMPYUTER GRAFIKASINI O'QITISH USULI	202
Ruziyev R. A., Bo'ronova O. N. RAQAMLI TA'LIM JARAYONINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI VA MAQASADLARI	210
Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari	
Shomurotova X. B. O'QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN DARS DAN TASHQARI O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MODELI	218
Teshayeva M. S. O'QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN DARS DAN TASHQARI O'QUV FAOLIYATINI WEB-TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI	225
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari	
Mirsanova U. M., Tilovov Sh. A. BO'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA TA'LIM MUHITLARINING AMALIY SAMARADORLIGI	232
Atamuratov R. VIRTUAL-TA'LIMIY MUZEYLAR RAQAMLI TA'LIM EKOTIZIMINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	240
Baydjanov B. X. INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIK FAKE NEWS VA DEZINFORMATSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUHIM OMILLARIDAN BIRI SIFATIDA	248
Jumanazarov S. S. GLOBALLASHGAN TA'LIM SHAROITIDA "TARBIYA" FANI O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MODELI	261
Isroilova R. S. BO'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH UCHUN TAYANILADIGAN TAMOYILLAR	268
Tleubayeva Z. S. RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QUVCHILARNING GLOBAL TARMOQDAN AXLOQIY TARBIYALASH MUAMMOLARI	277
Jorabekov T. K. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA "KOMPYUTER LINGVISTIKASI" FANIDAN AMALIY MASHHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI	287

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

TALABALARING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Ashurova Gulshan Shuxratovna

Navoiy davlat universiteti, O’zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga oid olimlarning ishlarini tahlili etish asosida mavjud muammolar keltirilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari va yechimlariga dolir taklif va tavsiyalar berib o’tilgan.

Tayanch so’zlar: mustaqil ta’lim, mustaqil ish, raqamli ta’lim texnologiyasi, veb-platforma, kreativ, kasbiy kompetentlik.

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ

Ashurova Gulshan Shuxratovna

Навоийский государственный университет, Узбекистан

Аннотация: В статье на основе анализа работ ученых представлены существующие проблемы, связанные с организацией самостоятельного образования студентов высших учебных заведений. Также были высказаны предложения и рекомендации относительно проблем и путей решения использования цифровых образовательных технологий при организации самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, самостоятельная работа, цифровые образовательные технологии, веб-платформа, креатив, профессиональная компетентность.

PROBLEMS OF USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK OF STUDENTS

Ashurova Gulshan

Navoi State University, Uzbekistan

Abstract: The article, based on the analysis of the works of scientists, presents the existing problems associated with the organization of independent education of students of higher educational institutions. Also, proposals and recommendations were made regarding the problems and solutions of using digital educational technologies in organizing independent learning of students.

Keywords: independent learning, independent work, digital educational technologies, web platform, creativity, professional competence.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimiga o’tganligi tufayli auditoriyada olib borilayotgan mashg’ulotning 50-60 % i mustaqil ta’limga ajratilgan. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalaridan talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning zamонавиъ yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda [1].

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish nazariyasi va amaliyoti, mustaqil ta’limni tashkil etishda ta’lim texnologiyalardan foydalanish metodikasiga oid mamlakatimizda tadqiqotlar N.A.Muslimov [2], A.O.Qo‘ysinov [2], M.U.Qo‘chqarov [3], B.R.Muqimov [4], I.X.Iminaxunova [5] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Xususan, N.A.Muslimov [2], O.A.Qo‘ysinov [2]lar kasb ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarining mustaqil bilim olishga qiziqishi va qobiliyatini oshirish hamda mustaqil ish jarayonida interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida rivojlantirish nazariyasi o‘rganilgan. B.R.Muqimov kasbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ish jarayonida interfaol ta’lim metodlari asosida didaktik kompetensiyasini rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga doir tadqiqot ishlarini olib borgan [4]. M.U.Qo‘chqarov oliy ta’lim muassasalarida talabalarining oliy matematika fanida mustaqil ta’limini va ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirgan [3]. И.Х.Iminaxunova tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarining ingliz tili fanidan mustaqil ta’limini tashkil etishning nazariyasiga oid izlanishlar olib borgan [4].

Bu kabi tadqiqotlar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida, ya’ni talabalarining mustaqil ta’limini va ishini tashkil etish nazariyasi hamda amaliyotiga oid ilmiy izlanishlar P.M.Garanina [5], A.O.Prokubovskaya [6], M.A.Stivareva [7], T.V.Rudina [8], I.V.George [9] kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Jumladan, P.M.Garanina [5], M.A.Stivareva [7]lar talabalarining mustaqil ishini, ularning bilim faoliyatini xususiyatini hisobga olgan holda tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqqan. A.O.Proxorova [6], I.V.George [9]lar talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqqan. T.V.Rudina [8] oliy ta’lim muassasalari talbalarining mustaqil ish jarayonida kognitiv fikrlashini va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga oid izlanishlar olib borgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasalari talabalarini turli fanlardan mustaqil ta’limini va ishini tashkil etishga oid tadqiqot

ishlarini olib borgan. Ammo oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimiga o’tganligi tufayli talabalarning mustaqil ta’limni va ishini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar o‘zgarmoqda. Ya’ni, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shuning uchun kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mutstaqil ta’limini tshkil etish tizimini takomillashtirishda raqamli ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim sanaladi.

Ushbu masalalar bo‘yicha, ya’ni talabalarning mustaqil ta’limini raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanish metodikasiga oid tadqiqotlar D.T.Yaxshiboyev [10], R.T.Auezova [1], N.V.Mixaylova [11], N.V.Muraveva [12], A.A.Drobishevskiy [13]lar tomonidan o‘rganilgan.

Jumladan, D.T.Yaxshiboyeva talabalarning mustaqil o‘quv faoliyati davomida biotexnologiya fanidan kreativ fikrlash qobiliyatini, faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, refleksivlik, ijodkorlikni oshirish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter dasturlari va mobil texnologiyalaridan foydalanishni taklif etgan. Shuningdek, talabalarning biotexnologiya fani mustaqil o‘quv faoliyatida adaptiv-reprodukтив texnologiya asosida masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirishga oid virtual laboratoriylar, vebga yo‘naltirilgan onlayn didaktik o‘quv resurslar hamda axborot-ta’lim muhitidan foydalanish metodikasi taklif etilgan [10].

R. T.Auezova bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etishning pedagogik shartlari ishlab chiqilgan (o‘quv faoliyatida ilmiy axborotlar bilan ishlashni uslubiy yondashuvlari, vizual loyihamar tayyorlash texnologiyalarini faollashtirish, muammoli, kreativ fikrlash jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish). Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini veb-kvest ta’lim texnologiyasi yordamida tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan. Shu bilan birga bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini tashkil etish modeli elektron ta’lim vositalari asosida takomillashtirilgan [1].

N.V.Mixaylova bo‘lajak mutaxassislarining yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyaviy makonida foydalanish aniqlashtirilgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil ta’limini va ishini Moodle elektron ta’lim muhitidan foydalanib tashkil etish metodikasini ishlab chiqqan. Bunda interaktiv o‘zaro ta’sir jarayonida ta’lim muammolari va topshiriqlari tizimini hal qilishga qaratilgan bo‘lajak mutaxassislarining o‘quv, kognitiv va amaliy faoliyati aniqlashtirilgan. Shu bilan birga talabalarning elektron ta’lim muhitida mustaqil ishini tashkil etishning tarkibiy qismlari (kognitiv, qadriyat, faoliyat), mezonlari (kognitiv, motivatsion, operativ) va daraja ko‘rsatkichlari (meta bilimga egalik, fan bilimlari sifati; mustaqil ishslashga munosabat, o‘quv faoliyatiga motivatsiya, qiymat yo‘nalishlari darjasи; fan ko‘nikmalarini rivojlantirish, samarali faoliyat darjasи va mustaqil o‘quv faoliyatini oqilona tashkil etish) ishlab chiqilgan [11].

N.V.Muraveva ta’limni axborotlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ishlarining texnologik, instrumental, multimedia, subyektiv tajribasini va individual xususiyatlarini hisobga olish, rejorashtirish va mulohaza yuritish imkoniyatlari kabi muhim xususiyatlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, sirtqi ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ishi modeli ishlab chiqilgan hamda professor-o‘qituvchi axborot texnologiyalari yordamida talabalarning mustaqil ishlarini onlayn qabul qilish va baholash mexanizmini takomillashtirilgan. Shu bilan birga quyidagilar amalga oshirilgan [12]:

- talabaning mustaqil bilim faoliyatining individual trayektoriyasini tanlash;
- o‘quv materialini mantiqiy va didaktik tizimlashtirishga asoslangan talabalarning mustaqil ishlari texnologiyasi;
- interfaol vositalar yordamida talabaning o‘quv va kognitiv faoliyatini amalga oshirish;
- diagnostika va o‘zini-o‘zi tashxislash asosida talabalarning o‘quv faoliyatini monitoring qilish.

A.A.Drobishevskiy mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarning ilmiy axborotlar bilan ishslashini faollashtirish, ularning rivojlanishi va malakasini

oshirishga faol hamda ijobiy ta’sir ko‘rsatish, professor-o‘qituvchilarni samarali tashkil etish hamda doimiy (onlayn) monitoring qilish uchun qo‘srimcha resurslar bilan ta’minalashdan iborat bo‘lgan mustaqil ishlarni tashkil etishda kompyuter asosidagi ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari aniqlangan. Shuningdek, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning interfaol xususiyati, shakllari, usullari va vositalaridan faol foydalanish imkonini beruvchi kompyuter ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlarini tashkil etish modeli ishlab chiqilgan hamda mustaqil ish jarayonida nazorat, o‘zini-o‘zi nazorat qilish va qayta aloqa mexanizmlari, mustaqil ishning borishi (kognitiv faollik, mustaqillik, o‘zini-o‘zi tashkil etish) va natijalarini (o‘zlashtirilgan bilimlar darajalari, olingan bilimlarni ta’lim va kvaziprofessional muammolarni hal qilishda qo’llash ko‘nikmalari, mustaqillik va o‘zini-o‘zi tashkil etish) doimiy monitoringini ta’minalash imkonini beruvchi mustaqil ishning samaradorlik mezonlari va darajalari asoslab berilgan [13].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etishda elektron ta’lim resurslardan foydalanishga oid yondashuvlar ilgari surilgan bo‘lsa-da, biroq talabalarning mustaqil ta’limini raqamli ta’lim texnologiyalar asosida, shu jumladan matematika va axborot texnologiyalari sohasida taxsil olayotgan talabalarning mustaqil ta’limini va mustaqil ishini tashkil etishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustqil ta’limini va mustqil ishini tashkil etishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish shakl va usullarini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammo yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish uchun dastlab mustaqil ta’lim, mustaqil ish tushunchalarini aniqlashtirish hamda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etishga oid olib borilgan ilmiy ishlarni tahlil etish maqsadga muvofiq, - degan xulosaga keldik.

Ta’lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismi zamonaviy sharoitda talabalarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, yangi, nostandard sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini topish ko‘nikmalarini shakllantirishda mustaqil ish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ish jarayonida talabalarda tayyorgarlik shakllanadi o‘zini-o‘zi rivojlantirish, kognitiv faollik rag‘batlantiriladi va kasbiy qiziqishlar, ijodiy faollik va tashabbus rivojlanadi, bu esa o‘rganish uchun motivatsiyaning o‘sishiga yordam beradi.

Bu borada I.V.Georgening fikriga ko‘ra, mustaqil ish – bu talaba tomonidan ichki kognitiv motivlar tufayli tashkil etilgan, eng qulay, o‘z nuqtai nazaridan oqilonan, faollik, jarayonda mustaqil ravishda boshqariladigan faoliyatdir [14]. H.B.Ananyina [15], I.V.Karnaux [16], E.A.Shaxova [17]larning bildirishicha, mustaqil ish – bu professor-o‘qituvchining topshirig‘iga binoan va metodik rahbarligida, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan talabalarning rejali ishidir. Ushbu olimlarning bildirishcha, talabalarning mustaqil ishi fanning tuzilishi, xarakteri va xususiyatlariga, uni o‘rganish uchun soatlar miqdoriga, topshiriqlar turiga, talabalarning individual fazilatlariga va o‘quv faoliyati sharoitlariga bog‘liq hisoblanadi. Bunda talabalarning mustaqil ishini tashkil etish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- tayyorgarlik bosqichi. Maqsadlarni aniqlash va mustaqil ish dasturini tuzish, uslubiy yordam (o‘quv materiallari, topshiriqlar va boshqalar) va jihozlarni (kompyuter, printer va boshqalar) tayyorlashni o‘z ichiga oladi;

- asosiy bosqich. Dasturni amalga oshirish, axborotni izlashning turli usullaridan foydalanish, bilimlarni o‘zlashtirish va qayta ishlash, ularni amaliyotda qo‘llash, natijalarini qayd etish va ish jarayonini o‘zini-o‘zi tashkil etishni o‘z ichiga oladi;

- yakuniy bosqich. Ish natijalarining ahamiyatini baholash va tahlil qilish, olingan bilim va ko‘nikmalarni tizimlashtirish, dastur va ish usullari samaradorligini baholashni o‘z ichiga oladi.

Ushbu olimlarning ishlarida mustaqil ish tushunchasi va uning tashkil etishga doir fikr mulohazalar yuritgan bo‘lsa, quyidagi olimlar mustaqil ta’lim tushunchasiga aniqlashtirish kiritgan.

Jumladan, N.B.Strekalovaning fikriga ko‘ra, mustaqil ta’lim – bu ta’lim oluvchi biror bir fanga oid ma’lumotlarni mustaqil izlanishlar orqali o‘rganishi va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishidir [18]. J.Hasonboyev, X.To‘raqulovlarning fikriga ko‘ra, mustaqil ta’lim – bu olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘sishimcha o‘quv materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shaklidir [19]. I.A.Zimnyayaning ta’kidlashicha, mustaqil o‘quv faoliyat quyidagi beshta parametrga ko‘ra tasniflanadi: nazorat manbasiga; faoliyat xususiyatiga; motivator xususiyatiga; individual va differensial xususiyatiga; kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishga [20]. J.Hasonboyev, X.To‘raqulovlarning fikriga ko‘ra, “mustaqil ta’lim – bu olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘sishimsha o‘quv materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shaklidir” [21]. S.Y.Rajabova, X.S.Yakubovalarning fikriga ko‘ra, mustaqil ta’lim – bu ta’lim oluvchi biror bir fanga oid ma’lumotlarni mustaqil izlanishlar orqali o‘rganish va o‘qituvshi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishidir [22]. V.V.Tolmachevaning fikriga ko‘ra, mustaqil ta’lim – “bu muayyan fanning o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida fanning xususiyatidan kelib shiqib, mustaqil ish topshiriqlarini bajarishdir” [23].

Ba’zi tadqiqotchilar (B.N.Guzanov [24], G.I.Golobokova [25], D.T.Yaxshiboyev [10], R.T.Auyezova [1]) talabalarning faolligini oshirishda mustaqil ish muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlaydi. Biroq, bu yerda mustaqil ta’lim va mustaqil ish tushunchalarini aniqlash ixtiyoriy ravishda sodir bo‘ladi. Aslida esa mustaqil ish faqat mustaqil ta’limni tashkil etish vositasidir. Shuningdek, mustaqil ishni tashkil etishda (o‘zini-o‘zi tarbiyalash faoliyati, ta’lim va kasbiy qiziqishning

barqarorligi, uni nazorat qilishning refleksliligi) professor-o‘qituvchining yetakchi rolini qayd etadi. Bu borada N. N.Bebutovaning fikriga ko‘ra, “mustaqil ta’lim professor-o‘qituvchi tashkil qiladi va rejalashtiradi, ammo uni amalga oshirishda bevosita ishtirok etmaydi. Shuningdek, muallif mustaqil ishni rejalashtirish va nazorat qilishni o‘quv jarayonining muhim bo‘g‘ini sifatida nafaqat professor-o‘qituvchi, balki oliy ta’lim muassasalarining kafedralari, o‘quv bo‘limi, metodik xizmatlari ham amalga oshirishi kerakligini ta’kidlaydi” [26].

Keltirilgan ta’riflar asosida mustaqil ta’limning ba’zi bir komponentlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- mustaqil ta’lim o‘quv jarayonidan oldin yoki uning davomida va keyin sodir bo‘ladigan hamda o‘zini-o‘zi tarbiyalashning doimiy jarayonini harakatlantiruvchi kuch va nazorat qilinadigan (o‘qish davrida) ta’lim faoliyatining turi;
- mustaqil ta’lim professor-o‘qituvchining boshqaruv, yetakchilik roliga bog‘liq jarayon;
- mustaqil ta’lim talabaning shaxsiy fazilatlari (motivatsiya, maqsadga muvofiqlik, kognitiv va faollik faoliyati, mustaqillik, o‘zini-o‘zi tartibga solish) bilan bog‘liq jarayon;
- mustaqil ta’lim talabalarning mustaqil ta’limi samaradorligi, uni tashkil etish shartlariga bog‘liq. Bunday shartlarga professor-o‘qituvchilarining boshqarish darajasi, mustaqil ish topshiriqlari va ular mazmunining tabiat, ta’milish darajasini (axborot-texnik bazasi, uslubiy ta’moti, talabalarning mustaqil faoliyat ko‘nikmalari) kiritish mumkin” ;
- mustaqil ta’lim talabalarning mustaqil izlanish orqali fanni o‘rganish va o‘zini-o‘zi rivojlantirish.

Ushbu fikrlarni umumlashtirish asosida aytish mumkinki, mustaqil ta’lim – bu talabalar bo‘sh vaqtida fanni mustaqil ravishda ilmiy-metodik adabiyotlardan, turli axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib o‘rganish faoliyati turidir.

Shunday qilib, ilmiy-pedagogik jihatdan mustaqil ta’lim tasnifi xilma-xil tarzda taqdim etilgan bo‘lib, u ko‘p funksiyali va qirrali hisoblanadi.

D.T.Yaxshiboyev [10], S.N.Kostromina [27]larning tadqiqotlarida mustaqil ta’limning xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Ularning ta’kidlashicha, mustaqil ta’limning quyidagi xarakterli xususiyatlarini ajratish mumkin:

- ta’lim jarayonining ajralmas qismi;
- o‘quv jarayonining auditoriya va auditoriyadan tashqarida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan shakli;
- professor-o‘qituvchining bevosa ko‘rsatmasiz talabalarning mustaqil, kognitiv faoliyati;
- professor-o‘qituvchi rahbarligida faoliyatni rejalashtiruvchi va uning bajarilishini nazorat qiluvchi mustaqil ravishda amalga oshiriladigan faoliyat.

Ushbu xususiyatlar asosida talabaning mustaqil ta’limida fanga oid olingan materialni chuqurlashtirish, tushunish, tizimlashtirish hamda olingan ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Ammo mustaqil ta’limni yuqorida keltirilgan imkoniyatlariga qaramay, bugungi kunda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish talab darajada deb bo‘lmaydi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida talabalar bo‘sh vaqtini turli ijtimoiy tarmoqlarda ko‘ngilochar videolar, turli ko‘rsatuvlar va onlayn yozishmalar asosida vaqtini samarasiz o‘tkazmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar, shu jumladan raqamli ta’lim texnologiyalardan samarali foydalanilmayotganligi bilan izohlash mumkin. Shu bois, bugungi kunda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanishni ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tahlil va natija. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish tizimini takomillashtirishdan iborat. Shuning uchun tadqiqot doirasida oliy ta’lim muassasalarining matematika va axborot texnologiyalari sohasida tahsil olayotgan talabalarining mustaqil ta’limini va ishini tashkil etish holati tahlil etildi. O‘rganish vaqtida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini va talabalar bilan

suhbatlar, anketa so‘rovlarni o‘tkazildi. O‘tkazilgan suhbatlar va anketa so‘rovlarning ba’zi birlarini tahlilini keltiramiz.

Xususan, 73 % professor-o‘qituvchilar talabalarning mustaqil ishlarini raqamli ta’lim texnologiyalarga bog‘lab bersa samarali deb hisoblaydi. 47 % professor-o‘qituvchi talabalarga mustaqil ta’lim topshiriqlarini raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanib bajarishni topshiriq sifatida berishi aniqlandi. 88 % talabalar darsdan tashqari 5-6 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishini ma’lum qildi. 68 % talabalar mustaqil ta’lim topshiriqqa yuzaki qarashi ma’lum bo‘ldi.

Shuningdek, olib borilgan izlanishlar tahliliga ko‘ra, professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga raqamli ta’lim vositalari yordamida beriladigan mustaqil ta’lim topshiriqlari talabalarninig kreativ fikrlashini rivojlantirishga yetarli darajada emas. Ya’ni, talabalarga mavzuga oid taqdimot tayyorlash, kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanish o‘rganish kabi topshiriqlar berishi ma’lum bo‘ldi.

Tadqiqot muammosiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarning hamda mavjud oliy ta’lim muassasalaridagi holatlarning tahliliga ko‘ra, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda raqamli ta’lim texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb muammolaridan ekanligi aniqlandi. Buni yechimi sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- talabalarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishga mo‘ljallangan dasturiy vosita, jumladan veb-platforma ishlab chiqish;
- xorijiy ta’lim muhitlardan foydalanishga oid amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- onlayn tugaraklarni tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- talabalarga mustaqil ta’limida onlayn viktorinalar o‘tkazish;
- talabalarning bilimini bahlovchi va nazorat qiluvchi onlayn tizim ishlab chiqish;
- talabalarga beriladigan mustaqil ta’lim topshiriqlarini kompyuterning amaliy va instrumental dasturlaridan foydalanib bajarishga qaratilgan bo‘lishi lozim;

Xuloxa. Shunday qilib, keltirilgan vazifalarni bajarish orqali talabalarning mustaqil ta’limini raqamli ta’lim texnologiyalari yordamida tshkil etishga va bo’sh vaqtini samarali tashkil etish asosida fanga oid kreativ, kognitiv fikrlashini va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Adabiyotlar

1. Auezova R. T. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’limini veb-kvest texnologiyasi asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish (informatika va raqamli texnologiya fani misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –Nukus – 2024. – 147 б.
2. Муслимов Н.А., Қўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарияси ва методикаси. Монография. – Т.: «Фан», 2009. – 120 б.
3. Қўчқаров М. У. Талабаларда мустақил таълим олиш кўнимларини ривожлантириш назарияси ва технологияси (“Олий математика” ўкув фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. нукус – 2021. – 48 б.
4. Муқимов Б.Р. Талабаларни мустақил иш жараёнида интерфаол таълим методлари асосида дидактик компетенциясини такомиллаштириш (касб таълими йўналишлари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, – 2020. – 48 б.
5. Гаранина Р. М. Реализация личностно-развивающего потенциала самостоятельной работы студентов медицинского вуза в процессе освоения теоретических дисциплин // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Уфа, 2012. – 24 с.
6. Прокубовская А. О. Компьютерное моделирование как средство развития самостоятельной познавательной деятельности студентов вуза // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Екатеринбург, 2002. – 164 с.

-
7. Цыварева М. А. Организация самостоятельной работы студентов-будущих учителей с учетом характера их познавательной деятельности // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М., 2012. – 154 с.
8. Рудина Т. В. Организация самостоятельной работы студентов бакалавриата вузов на основе познавательно-деятельностной матрицы // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Самара, 2012. – 213 с.
9. Георге И. В. Формирование профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования на основе организации самостоятельной работы // Монография. – Тюмень: ТИУ, 2016. – 143 с.
10. Яхшибоева Д.Т. Бўлажак биология ўқитувчиларининг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш (биотехнология фани мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2022. –146 б.
11. Михайлова Н.В. Электронная обучающая среда moodle как средство организации асинхронной самостоятельной работы студентов вуза // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Оренбург, 2012. – 25 с.
12. Муравьева Н.В. Самостоятельная работа студентов-заочников в условиях информационно-обучающей среды // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Екатеринбург, 2013. – 24 с.
13. Дробышевский А.А. Организация самостоятельной работы студентов с применением компьютерных технологий обучения // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Саратов, 2013. – 24 с.
14. Георге И. В. Формирование профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования на основе

организации самостоятельной работы // Монография. – Тюмень: ТИУ, 2016. – 143 с.

15. Ананьина Н. В. Организация самостоятельной работы студентов в условиях реализации ФГОС // Образование. Карьера. Общество. 2013. № 4–1 (40)

16. Карнаух И. В. Организация самостоятельной работы студентов в образовательном процессе // Известия ВолгГТУ. 2012. –№ 9. – С.79-81

17. Шахова Е. А. Формирование общих и профессиональных компетенций через организацию самостоятельной работы обучающихся // Образование. Карьера. Общество. 2014. – № 2 (41). – С. 34-42.

18. Стрекалова Н.Б. Управление качеством самостоятельной работы студентов в открытой информационно-образовательной среде // Монография Н.Б. Стрекалова. – Самара, 2017. – 180 с.

19. Ҳасонбоев Ж., Тўрақулов Х. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2009. – 355 б.

20. Зимняя И. А. Ключевые компетенции– новая парадигма резуль-тата современного образования [Электронный ресурс] / И. А. Зимняя // Интернет-журнал «Эйдос». – 2006. – 5 мая. – Режим доступа: <http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm>.

21. Ҳасонбоев Ж., Тўрақулов Х. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2009. – 355 б.

22. Ражабова С. Ю., Якубова Х. С. Методика независимого обучения // <file:///C:/Users/Mirsanov/Downloads/metodika-nezavisimogo-obucheniya.pdf>

23. Толмачева В.В. Организация самостоятельной работы студентов в условиях современного высшего образования // Казанский педагогический журнал. – № 6, 2019. – С. 53-57.

24. Гузанов Б.Н. Организация самостоятельной работы студентов вузов в условиях реализации многоуровневой модели обучения // Монография. – Екатеринбург, 2014. –158 с.

25. Голобокова Г. И. Рабочая тетрадь как многофункциональное дидактическое средство в системе самостоятельной работы студентов // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Чита, 2012. –180 с.
26. Бебутова Н. Н. Организация и проведение самостоятельной работы студентов // Молодой ученый. 2015. –№ 9 (89). – С. 1029-1032.
27. Комаров Ю.А. Методическое обеспечение дистанционного обучения биологии детей с ограниченными возможностями здоровья и сохранным интеллектом // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2014. – 18 с.